

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS  
AND THEIR SOLUTIONS  
VOLUME 5, ISSUE 02, 2024**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOG HAMDA MUTAXASSISLARINING KASBIY  
KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

**Mattiyeva Fotima Xolniyoz Qizi**

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instetuti Boshlang'ich ta'lism yo'naliishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lism pedagog hamda mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lism, pedagog, kasbiy kompetentlik, ta'lism-tarbiya, pedagogik mahorat, nazariy va amaliy bilimlar.

### **KIRISH**

Bugungi kunda ustoz va pedagoglarning o'rni, ularning ta'lism tizimida vazifa va burchlari beqiyosdir. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lism-tarbiya berish jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va shu bilan birgalikda hayotiy tajriba, insoniylik, vatanparvarlik haqida ham ma'lumotlar beradi va bu narsalarni yoshlar ongiga singdiradi. Boshlang'ich ta'lism pedagogida esa bu bilim, ko'nikma, malaka, insoniylik tuyg'ulari ikki karra ko'p bo'lmog'i lozim. Shu bois A. Jomiyning "O'qituvchi o'z bilim, malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlarini o'rganmog'i lozim " degan jumlalarini ta'kidlab o'tsak mubolag'a bo'lmas.

Mamlakatimizda o'qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy ta'lism mazmunini modernizatsiyalash , talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lism muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida " gi PF – 4947 – sonli farmoni 2017-yil 20-apreldagi " Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi PQ 2909 – sonli, 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Inovatsion rivojlanish Vazirligini tashkil etish to'g'risida " gi PF – 5264 – sonli qarorlari 2018-yil 25-yanvardagi " Umumiyo'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi PF – 5313 – sonli Farmoni va boshqa sohaga tegishli me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni beqiyos hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rinnegallaydi.

### **ASOSIY QISM**

Boshlang'ich ta'lism pedagog hamda mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishda pedagogik mahorat hamda ta'lism tizimidagi zamonaviy interaktiv zamon talabiga mos xorijiy tajribalarga javob bera oladigan o'qitish ta'lism dasturlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jarayonlar mutaxassislarining nazariy va amaliy jihatlarini oshirishda yordam beradi.

- Kasbiy kompetentlik :** mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.
- Maxsus kompetentlik :** kasbiy - pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy pedagogik vazifalarni oqilonan hal etish faoliyati natijalarini real baholash.

3. **Pedagogik mahorat** : o'qituvchilarni ilmiy – metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Pedagogik ijodkorlik, pedagogik topqirlik, pedagogik muloqot, o'qtuvchining professional sifatlari, o'qtuvchi nutqi, uning o'quvchiga har tomonlama ta'sir jihatlari, pedagogik texnika va o'qtuvchining tarbiyachilik mahoratini talab etadi.

4. **Ta'lif va tarbiyaning uzviyligi** : pedagog talimni ham tarbiyani ham uzviyligini taminlay olishi, talim jarayonlarida tarbiyaning o'rnini mustahkamlab bormog'i, shu orqali nazariy bilimlarni, balki amaliy o'quvchilarini shaxs etib tarbiyalshda ularni hayotga ham tayyorlab borishi, komil inson sifatida shakllantirib bora olishi lozim.

### **MUAMMO VA YECHIMLAR**

Boshlang'ich ta'lif pedagog hamda mutaxassislarining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirishda quyidagi ko'rsatmalar yordam beradi.

1. **Pedagoglarning bilimlari va sifatlarini oshirish** : boshlang'ich sinf o'qituvchilariga DTS da belgilangan bilim, ko'nikma, malaka kompetensiyalarini shakillantirishda psixologik tayyorgarlik.

2. **Shaxsiy sifatlar** : insonparvarlik, ma'lumotlilik, ma'naviy dunyosining mazmuni, madaniyati, eruditsiyasi ( iqtidori ) o'z bilimini doim oshirib borish, pedagogik odobga egalik, talabchanlik, axloqiy qiyofasi, o'z o'quvchilariga o'qish, ishslash va yashashda namuna bo'la olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish.

3. **Kasbiy sifatlar** : o'quvchi yoshlarning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini bilish har bir o'quvchi shaxsini loyihalashtira olish, didaktik bilimlarni mavjudligi, o'z o'quv predmeti va unga doir so'ngi yangiliklarini bilish, o'quv reja, dastur, o'quv qo'llanmalar, darslik va qo'shimcha adabiyotlarni bilish, ta'lif vazifalari funksiyalari tashkil etish tamoyillari.

4. **Tekshirish va baholash** : tekshirish va baholashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilar o'zlashtirgan ma'lumotlarni tekshirish va baholashda darsliklardan foydalanish.

### **XULOSA**

Boshlang'ich ta'lif pedagog hamda mutaxassislarining kasbiy kompetentligini nazariy va amaliy jihatlarini oshirishda quyidagilar yordam beradi :

- **Chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy axloqiy sifatlarga ega bo'lish;**
- **Ta'lif oluvchilar huquqlariga rioya qilish ;**
- **Kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish ;**
- **Inovatsiyalar ishlab chiqarish va amaliyotda qo'llay olish.**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirish kerak :

- a. **Mutaxassis fanlarini o'qitish ;**
- b. **Mutaxassis kurslar vositasida ;**
- c. **Mustaqil ta'lif vositasida ;**
- d. **Ustoz – shogird an'anasa.**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi chuqur bilimga ega bo'lmog'i quyidagi talablarga javob bera olishi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, nafaqat nazariy bilimlarni egallashi balki, amaliyotda ham qo'llay olmog'i lozim. Zero boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi bog'bon bo'lsa, maktab ostonasiga endi qadam qo'ygan bola misoli endi ungan niholdir. Uni asrab avaylash , to'g'ri yo'lga yo'naltirish, uning hosilini rohatini ko'rish bog'bonlarimiz ustozlarga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchidan pedagogik – psixologik xarakterga egalik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'roqov Sh. Ta'lif muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayonini samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari // Xalq ta'limi – Toshkent 2016. №5 – B 55 – 60 ( 13, 00, 00 ; № 2 ).

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS  
AND THEIR SOLUTIONS  
**VOLUME 5, ISSUE 02, 2024**

---

2. O'roqov Sh. Bo'lajak kollej o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy metodik jihatlari // Sam.Du ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi.
3. O'roqov Sh. Oliy ta'lim muassalarida mutaxassisni inovatsion tayyorlashning didaktik xususiyatlari // Ta'lim inovatsiyalar : strategiya nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar toplami. Samarqand 2018 1-qism, - B. 48 -52 .